Ulug'bek Hamdamning badiiy tafakkur va ijod psixologiyasiga oid qarashlari ham mazkur tadqiqot uchun nazariy asos vazifasini bajaradi. Olim hayotiy tajriba va ruhiy kechinmalarning badiiy shaklga aylanish mexanizmlarini tahlil qilib, san'atkorning ichki dunyosi va poetik olami o'rtasidagi murakkab munosabatlarga e'tibor qaratadi. Bu yondashuv Oybek she'riyatidagi poetik obrazlar va ramzlarning genezisini tushuntirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tahlil qilingan ilmiy manbalar shuni ko'rsatadiki, Oybek hayoti va ijodining turli jihatlari adabiyotshunoslar tomonidan keng o'rganilgan. Biroq mavjud tadqiqotlarda Oybek badiiy tafakkurining shakllanish manbalari Naim Karimov ilmiy talqini asosida yaxlit tizim sifatida maxsus tadqiq etilmagan. Mazkur maqolada aynan shu masala tadqiqot markaziga qo'yilib, adib badiiy tafakkurining oilaviy-estetik muhit, mumtoz adabiyot, jahon madaniyati, falsafiy tafakkur va xalq hayoti bilan bog'liq manbalari tahlil qilinadi.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda biografik metodning zamonaviy interpretatsion imkoniyatlariga tayanildi. Tadqiqotning asosiy manbalarini Naim Karimovning “Oybek”, “Oybek va Zarifa” asarlari hamda Zarifa Saidnosirovaning “Oybegim mening” xotiralari tashkil etadi. Shuningdek, Bahodir Karim, Hotam Umurov, Ulug‘bek Hamdam va boshqa adabiyotshunoslarning nazariy qarashlaridan foydalanildi.

Tadqiqot jarayonida biografik tahlil usuli qo‘llanilib, Oybek hayotiga oid faktlarning uning badiiy tafakkuri shakllanishidagi o‘rni o‘rganildi. Bunda biografik materiallar adib asarlarining bevosita manbai sifatida emas, balki uning dunyoqarashi, estetik ideallari va ijodiy ongini shakllantirgan omillar sifatida talqin qilindi.

Tadqiqotda kontekstual rekonstruksiya usulidan ham foydalanildi. Ushbu usul yordamida Oybek yashagan tarixiy davr, oilaviy muhit, mutolaa tajribasi va xalq hayoti bilan bog‘liq kuzatishlarning uning badiiy tafakkuridagi aks etish shakllari tiklandi. Natijada biografik faktlarning badiiy matnda aynan takrorlanishi emas, balki estetik qayta ishlanish mexanizmlariga e‘tibor qaratildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Shuningdek, qiyosiy-tipologik tahlil usuli asosida Oybek biografiyasidagi ayrim hodisalar va ularning badiiy tafakkuridagi ko‘rinishlari o‘zaro qiyoslandi. Bu jarayonda mutolaa madaniyati, Sharq va G‘arb adabiyoti ta‘sirini, xalq hayotini kuzatish tajribasi hamda poetik timsollarning shakllanish omillari tahlil qilindi [3].

Manbashunoslik tahlili yordamida Naim Karimov va Zarifa Saidnosirova keltirgan biografik ma‘lumotlar o‘zaro solishtirildi. Bu esa Oybek shaxsiyati va ijodiy faoliyatiga oid faktlarning ishonchligini tekshirish hamda ularning ilmiy talqinini aniqlashtirish imkonini berdi [4].

Mazkur metodlar majmui Oybek badiiy tafakkurining shakllanish manbalarini aniqlash, biografik faktlarning estetik transformatsiya jarayonidagi o‘rnini ko‘rsatish hamda Naim Karimov tadqiqotlarining biografik metod rivojidadagi ahamiyatini yoritishga xizmat qildi.

Naim Karimov tadqiqotlari Oybek badiiy tafakkurining shakllanishini faqat adabiy ta‘lim yoki keyingi mutolaa tajribasi bilan izohlash mumkin emasligini ko‘rsatadi. Adib dunyoqarashi va estetik didining dastlabki asoslari oilaviy muhitda, ayniqsa, onasi Shahodat opaning ma‘naviy ta‘sirini ostida shakllangan. Shu jihatdan Oybek biografiyasida oilaviy-estetik muhit badiiy tafakkurning eng qadimiy va barqaror manbalaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Naim Karimovning yozishicha, Musoning texnikum davridayoq adabiyotga bo‘lgan qiziqishi tengdoshlari orasida ajralib turgan. U o‘zbek tili va adabiyotini eng sevgan fan sifatida o‘rgangan, Navoiy va Fuzuliy ijodini muntazam mutolaa qilgan. Bu qiziqishning ildizlari haqida Oybekning o‘zi shunday degan: “Onam rahmatlik savodxon edilar. Navoiy, Fuzuliy, Mashrabni ko‘p o‘qir edilar. O‘sha g‘azallarining jarangi qulog‘imda qolgan” [3, 24-b.].

Mazkur e‘tirof Oybek estetik didining shakllanishida oilaviy muhit hal qiluvchi o‘rin tutganini ko‘rsatadi. Muhimi, bu yerda gap faqat kitob o‘qishga rag‘bat haqida emas, balki mumtoz she‘riyatning musiqiyliigi, ohangi va ruhiy ta‘sirining bola ongiga singishi haqida bormoqda. Oybek keyinchalik Navoiy va Fuzuliy ijodini ilmiy va estetik jihatdan chuqur o‘rgangan bo‘lsa-da, bu muhabbatning ilk manbai bolalik davrida onasi orqali eshitilgan g‘azallar bo‘lgan.

Naim Karimov Shahodat opa obrazini tahlil qilar ekan, uning Oybek xarakteri va ma‘naviy dunyosiga ta‘sirini alohida ta‘kidlaydi. Olim Oybekning “Onamni eslab...” she‘ridan parchalar keltirib, shoirming bolalik xotiralari bilan keyingi hayoti o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rsatadi. She‘rda ona qiyofasi mutolaa qilayotgan, mehnat qilayotgan va farzandlariga ma‘naviy nur ulashayotgan inson sifatida gavdalanadi. Naim Karimov ushbu satrlarni sharhlar ekan, Oybekning umr bo‘yi kuzatilgan mehnatsevarligi, mutolaa madaniyati va tinimsiz ijodiy izlanishlari ma‘lum ma‘noda bolalikda kuzatgan ana shu muhit bilan bog‘liq ekanini qayd etadi [3, 53–54-b.].

Biografik metod nuqtayi nazaridan qaralganda, ushbu faktlar alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki ular Oybek asarlarida uchraydigan ma‘naviy komillik, ilmga hurmat va estetik sezgirlikning tasodifiy hodisa emasligini ko‘rsatadi. Adibning keyingi ijodida namoyon bo‘lgan badiiy did, mumtoz adabiyotga muhabbat va mutolaa madaniyati oilaviy-estetik muhitda shakllangan ma‘naviy tajribaning davomi sifatida namoyon bo‘ladi.

Shunday qilib, Oybek badiiy tafakkurining shakllanishida onasi Shahodat opa timsoli, oilaviy kitobxonlik muhiti va mumtoz she‘riyat bilan ilk tanishuv muhim omillardan biri bo‘lgan. Bu holat Naim Karimov tadqiqotlarida biografik fakt va ijodiy tafakkur o‘rtasidagi bog‘liqlikni yorituvchi muhim dalillardan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Navoiy va Sharq mumtoz adabiyotining Oybek tafakkuridagi o‘rni

Oybek badiiy tafakkurining shakllanishida Sharq mumtoz adabiyoti, ayniqsa, Alisher Navoiy ijodi alohida o‘rin tutadi. Naim Karimovning qayd etishicha, Oybek va Zarifa hayotiga ma‘naviy harorat bag‘ishlagan manbalardan biri aynan Navoiy siymosi bo‘lgan. Olim bu haqda shunday yozadi: “Oybek va Zarifa hayotiga

harorat bag'ishlagan manbalardan biri Alisher Navoiy siymosi bo'lgan. Adib bolaligidanoq asarlarini sevib o'qigan Navoiy Saidnosir Mirjalol o'g'li uchun ham dunyodagi eng tabarruk zotlardan biri edi" [6, 98-b.].

Mazkur ma'lumot Oybekning Navoiyga bo'lgan munosabati oddiy adabiy qiziqish doirasidan ancha keng bo'lganini ko'rsatadi. Naim Karimovning yozishicha, Saidnosir Mirjalol o'g'li uzoq yillar davomida Navoiy hayoti va ijodiga oid qo'lyozma hamda toshbosma asarlarni yig'ib borgan. Keyinchalik ushbu boy kutubxona Oybek ixtiyoriga o'tgach, adib ulug' shoir merosini yanada chuqurroq o'rganish imkoniyatiga ega bo'lgan [6, 98-b.].

Oybek badiiy tafakkurining oilaviy-estetik manbalari

Naim Karimov tadqiqotlari Oybek badiiy tafakkurining shakllanishini faqat adabiy ta'lim yoki keyingi mutolaa tajribasi bilan izohlash mumkin emasligini ko'rsatadi. Adib dunyoqarashi va estetik didining dastlabki asoslari oilaviy muhitda, ayniqsa, onasi Shahodat opaning ma'naviy ta'siri ostida shakllangan. Shu jihatdan Oybek biografiasida oilaviy-estetik muhit badiiy tafakkurning eng qadimiy va barqaror manbalaridan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Naim Karimovning yozishicha, Musoning texnikum davridayoq adabiyotga bo'lgan qiziqishi tengdoshlari orasida ajralib turgan. U o'zbek tili va adabiyotini eng sevgan fan sifatida o'rgangan, Navoiy va Fuzuliy ijodini muntazam mutolaa qilgan. Bu qiziqishning ildizlari haqida Oybekning o'zi shunday degan: "Onam rahmatlik savodxon edilar. Navoiy, Fuzuliy, Mashrabni ko'p o'qir edilar. O'sha g'azallarining jarangi qulog'imda qolgan" [3, 24-b.].

Mazkur e'tirof Oybek estetik didining shakllanishida oilaviy muhit hal qiluvchi o'rin tutganini ko'rsatadi. Muhimi, bu yerda gap faqat kitob o'qishga rag'bat haqida emas, balki mumtoz she'riyatning musiqiyligi, ohangi va ruhiy ta'sirining bola ongiga singishi haqida bormoqda. Oybek keyinchalik Navoiy va Fuzuliy ijodini ilmiy va estetik jihatdan chuqur o'rgangan bo'lsa-da, bu muhabbatning ilk manbai bolalik davrida onasi orqali eshitilgan g'azallar bo'lgan.

Naim Karimov Shahodat opa obrazini tahlil qilar ekan, uning Oybek xarakteri va ma'naviy dunyosiga ta'sirini alohida ta'kidlaydi. Olim Oybekning "Onamni eslab..." she'ridan parchalar keltirib, shoirning bolalik xotiralari bilan keyingi hayoti o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatadi. She'rdan ona qiyofasi mutolaa qilayotgan, mehnat qilayotgan va farzandlariga ma'naviy nur ulashayotgan inson sifatida gavdalanadi. Naim Karimov ushbu satrlarni sharhlar ekan, Oybekning umr bo'yi kuzatilgan mehnatsevarligi, mutolaa madaniyati va tinimsiz ijodiy izlanishlari ma'lum ma'noda bolalikda kuzatgan ana shu muhit bilan bog'liq ekanini qayd etadi [3, 53-54-b.].

Biografik metod nuqtayi nazaridan qaralganda, ushbu faktlar alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki ular Oybek asarlarida uchraydigan ma'naviy komillik, ilmga hurmat va estetik sezgirlikning tasodifiy hodisa emasligini ko'rsatadi. Adibning keyingi ijodida namoyon bo'lgan badiiy did, mumtoz adabiyotga muhabbat va mutolaa madaniyati oilaviy-estetik muhitda shakllangan ma'naviy tajribaning davomi sifatida namoyon bo'ladi.

Shunday qilib, Oybek badiiy tafakkurining shakllanishida onasi Shahodat opa timsoli, oilaviy kitobxonlik muhiti va mumtoz she'riyat bilan ilk tanishuv muhim omillardan biri bo'lgan. Bu holat Naim Karimov tadqiqotlarida biografik fakt va ijodiy tafakkur o'rtasidagi bog'liqlikni yorituvchi muhim dalillardan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Navoiy va Sharq mumtoz adabiyotining Oybek tafakkuridagi o'rni

Oybek badiiy tafakkurining shakllanishida Sharq mumtoz adabiyoti, ayniqsa, Alisher Navoiy ijodi alohida o'rin tutadi. Naim Karimovning qayd etishicha, Oybek va Zarifa hayotiga ma'naviy harorat bag'ishlagan manbalardan biri aynan Navoiy siymosi bo'lgan. Olim bu haqda shunday yozadi: "Oybek va Zarifa hayotiga harorat bag'ishlagan manbalardan biri Alisher Navoiy siymosi bo'lgan. Adib bolaligidanoq asarlarini sevib o'qigan Navoiy Saidnosir Mirjalol o'g'li uchun ham dunyodagi eng tabarruk zotlardan biri edi" [6, 98-b.].

Mazkur ma'lumot Oybekning Navoiyga bo'lgan munosabati oddiy adabiy qiziqish doirasidan ancha keng bo'lganini ko'rsatadi. Naim Karimovning yozishicha, Saidnosir Mirjalol o'g'li uzoq yillar davomida Navoiy hayoti va ijodiga oid qo'lyozma hamda toshbosma asarlarni yig'ib borgan. Keyinchalik ushbu boy kutubxona Oybek ixtiyoriga o'tgach, adib ulug' shoir merosini yanada chuqurroq o'rganish imkoniyatiga ega bo'lgan [6, 98-b.].

Xalq hayotini kuzatish tajribasi va badiiy umumlashtirish

Oybek badiiy tafakkurining shakllanishida xalq hayoti bilan uzviy aloqadorlik alohida o'rin tutadi. Naim Karimov va Zarifa Saidnosirova keltirgan ma'lumotlar adibning hayotni kitoblardan emas, avvalo, odamlar orasidan, xalq turmushining bevosita kuzatuvidan o'rganganini ko'rsatadi. Shu jihatdan Oybek biografiasida xalq hayoti estetik kuzatuv obyekti bo'lish bilan birga, badiiy tafakkurning muhim manbalaridan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Naim Karimovning qayd etishicha, Oybek yoshligidan Toshkent ko'chalari, mahalla hayoti, bozorlar va hunarmandlar muhiti bilan yaqindan tanish bo'lgan. Adib kundalik hayot voqealarini kuzatish, odamlarning fe'l-atvori, muomalasi va turmush tarzini o'rganishga alohida qiziqish bildirgan. Keyinchalik ushbu kuzatuvlar



uning badiiy dunyoqarashida chuqur iz qoldirib, asarlaridagi obrazlar va xarakterlar tizimining shakllanishiga xizmat qilgan.

Bu jarayon yozuvchining umrining so'nggi yillarida ham davom etgan. Zarifa Saidnosirovaning guvohlik berishicha, Oybek sog'lig'i ancha zaiflashgan davrlarda ham bozorga borishni, odamlar bilan suhbatlashishni, xalq turmushini kuzatishni tark etmagan. Muallif bu haqda shunday yozadi: "Agar Oybek bu davrda xiyla sog'aymagan va men bilan birga bozor-o'charga bormagan, Yo'lchi va Gulnorlar, Yormat va Mirzakarimboylarning tengdoshlarini ko'rmagan, ular bilan suhbatlashmagan bo'lsa, "Ulug' yo'l"ni ham yozmagan bo'lardi" [4, 238-b.].

Mazkur fikr biografiya metod nuqtayi nazaridan muhim ilmiy ahamiyatga ega. Chunki unda badiiy asarning manbai sifatida tayyor voqealar emas, balki ijodkorning hayotni kuzatish tajribasi namoyon bo'lmoqda. Oybek bozor va ko'cha hayotini oddiy tomoshabin sifatida emas, balki yozuvchi nigohi bilan idrok etgan. Shu sababli u kuzatgan insonlar keyinchalik asarlarga aynan ko'chib o'tmaydi, balki ijodiy tafakkurda qayta ishlanib, umumlashgan badiiy xarakterlarga aylanadi.

Zarifa Saidnosirova Oybekning xalq hayotiga bo'lgan qiziqishini yanada aniqroq tasvirlaydi. Uning yozishicha, adib bozorga borganida savdogarlar, temirchilar, beshikchilar va boshqa hunarmandlar bilan suhbatlashishni sevgan. Ularning turmushi, nutqi va dunyoqarashini diqqat bilan kuzatgan. Muallifning ta'kidlashicha, "Tarixning ana shu tirik guvohlari bilan uchrashuvlar uni "Ulug' yo'l"ni yozishga ilhomlantirgandi" [4, 238-b.].

Muhimi, bu yerda xalq hayoti badiiy matn uchun tayyor material vazifasini bajarmaydi. Aksincha, u ijodkor tafakkurini oziqlantiruvchi estetik tajribaga aylanadi. Oybek kuzatgan voqealarning uning ongida tarixiy xotira, ijtimoiy mushohada va badiiy tasavvur bilan uyg'unlashib, yangi estetik sifat hosil qiladi. Shu sababli yozuvchi yaratgan obrazlar konkret shaxslarning nusxasi emas, balki xalq hayotining umumlashgan badiiy ifodasidir.

Bu jihatdan qaralganda, Oybek ijodida kuzatuv va badiiy umumlashtirish o'rtasidagi munosabat alohida ahamiyat kasb etadi. Adib hayotiy voqealarni hujjat sifatida emas, balki estetik tafakkur materiali sifatida qabul qiladi. Natijada real hayotda uchralgan insonlar, eshitilgan suhbatlar va kuzatilgan hodisalar badiiy obrazlar tizimida yangi ma'no kasb etadi.

Shunday qilib, xalq hayotini kuzatish tajribasi Oybek badiiy tafakkurining muhim manbalaridan biri bo'lgan. Naim Karimov va Zarifa Saidnosirova keltirgan biografiya ma'lumotlar adib ijodining hayot bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatadi. Biroq bu bog'liqlik voqealarning oddiy aks etishi emas, balki murakkab estetik qayta ishlanish va badiiy umumlashtirish jarayoni orqali namoyon bo'ladi. Aynan shu holat Oybek ijodida biografiya tajribaning badiiy tafakkurga transformatsiyalanish mexanizmini yaqqol namoyish etadi.

Toshkent topisi va ijodiy makon fenomeni

Biografiya metodda makon masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki ijodkor yashagan muhit uning dunyoqarashi, estetik didi va badiiy tafakkuri shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Shu jihatdan Naim Karimovning Oybek haqidagi tadqiqotlarida Toshkent shunchaki geografik hudud sifatida emas, balki adib ijodiy ongining shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan ma'naviy-estetik makon sifatida talqin qilinadi.

Bu holat, avvalo, olimning "Oybek" monografiyasi kompozitsiyasida yaqqol ko'zga tashlanadi. Asarning Toshkentning eski mahallalari, ko'chalari va Oybek voyaga yetgan muhit tasviri bilan boshlanishi tasodifiy emas. Naim Karimov biografiyani alohida faktlar ketma-ketligi sifatida emas, balki shaxs, muhit va tarixiy davrning o'zaro bog'liqligi asosida talqin qiladi. Shu sababli Oybek dunyoqarashining shakllanish manbalari ham, avvalo, uning yashagan muhiti bilan bog'liq holda yoritiladi.

Bahodir Karim ijodkor va makon munosabatini sharhlar ekan, A. Rasulovning quyidagi fikrini keltiradi: "San'atkor borki, u o'z ma'naviy olamini yaratadi. Bu olamning o'z fuqarolari, ichki tartibotlari, tog'u toshlari, bog'u bo'stonlari, siyosati, falsafasi va, tabiiyki, o'z markazi, tayanch nuqtasi bo'ladi" [5, 280-b.]. Ushbu nazariy qarash Oybek ijodiga ham to'la tatbiq etilishi mumkin. Chunki adib badiiy olamining shakllanishida Toshkent ana shunday tayanch nuqtalardan biri vazifasini bajargan.

Naim Karimov tadqiqotlarida Toshkent muhiti Oybekning xalq hayotiga yaqinligi, til sezgisi va ijtimoiy kuzatuvchanligining shakllanish manbai sifatida talqin qilinadi. Mahalla, bozor, hunarmandlar va oddiy odamlar hayoti bilan erta tanishgan adib keyinchalik ushbu tajribalarni ijodiy tafakkurida qayta ishlab, badiiy umumlashtirish darajasiga ko'targan. Shu sababli Toshkent Oybek asarlarida oddiy fon emas, balki estetik mazmun hosil qiluvchi faol badiiy makon sifatida namoyon bo'ladi.

Oybek biografiyasidagi muhim ijodiy makonlardan yana biri Taxtapuldagi bog' hisoblanadi. Naim Karimovning yozishicha, adib bog'dorchilikka oddiy mashg'ulot sifatida qaramagan. U bog'ni aqliy va jismoniy mehnat uyg'unlashgan ijodiy muhit sifatida qabul qilgan. Olim bu haqda shunday yozadi: "Qodiriy singari, aqliy va jismoniy mehnatga o'ch shoir o'zidagi ana shu tashnalikni qondirmoqchi, mehnatning har ikki turi bilan baravar shug'ullanish orqasida aqliy mehnatning yangi ufqlarini kashf etish ishtiyoqida edi" [3, 72-b.].

Mazkur fikr Oybek ijodiy laboratoriyasining muhim jihatini ochib beradi. Adib uchun ijod faqat yozuv stoli atrofidagi faoliyat emas, balki hayotning turli ko'rinishlari bilan uzviy bog'liq jarayon bo'lgan. Shu sababli bog' ham uning tafakkur dunyosining tarkibiy qismiga aylangan.

Oybek ijodiy faoliyatida Do'rmon ham alohida o'rin tutadi. Naim Karimov keltirgan xotiralarda adibning Do'rmondagi ijodiy mehnati haqida qimmatli ma'lumotlar uchraydi. Ayniqsa, "Hamza" dostonining qisqa muddat ichida yaratilgani haqidagi ma'lumotlar Oybekning favqulodda mehnatsevarligi va ijodiy intizomidan dalolat beradi. Bu yerda ham makon oddiy geografik joy bo'lib qolmay, ijodiy tafakkurni rag'batlantiruvchi muhit sifatida namoyon bo'ladi.

Shunday qilib, Toshkent, Taxtapul bog'i va Do'rmon Oybek biografiyasidagi muhim makonlar hisoblanadi. Biroq ularning ahamiyati geografik joy sifatida emas, balki adibning estetik dunyoqarashi va badiiy tafakkurini shakllantirgan ma'naviy muhit sifatida namoyon bo'lishidir. Naim Karimov tadqiqotlari tahlili ushbu makonlarning Oybek ijodida biografik fakt maqomidan chiqib, badiiy tafakkur manbalariga aylanganini ko'rsatadi.

Biografik tajribaning poetik transformatsiyasi: "Na'matak" fenomeni

Biografik metodning eng murakkab masalalaridan biri hayotiy tajriba bilan badiiy matn o'rtasidagi munosabatni aniqlashdan iborat. Zamonaviy adabiyotshunoslikda ijodkor hayotidagi voqealar, ruhiy kechinmalar yoki ma'naviy tajribalar asarda aynan takrorlanadi, degan qarash ilmiy jihatdan yetarli hisoblanmaydi. Aksincha, biografik fakt ijodkor tafakkurida qayta ishlanib, yangi estetik mazmun kasb etishi ta'kidlanadi. Naim Karimovning Oybek haqidagi tadqiqotlari ham aynan shu tamoyil asosida qurilgan.

Tadqiqot davomida tahlil qilingan materiallar Oybek badiiy tafakkurining shakllanishida oilaviy-estetik muhit, Sharq mumtoz adabiyoti, mutolaa madaniyati, qomusiy qiziqishlar, xalq hayotini kuzatish tajribasi va Toshkent muhitining muhim o'rin tutganini ko'rsatdi. Biroq ushbu omillar adib asarlarida biografik fakt sifatida emas, balki estetik qayta ishlangan badiiy hodisalar sifatida namoyon bo'ladi.

Bahodir Karim ijodkor poetik olamining o'ziga xosligi haqida fikr yuritir ekan, ayrim obrazlar vaqt o'tishi bilan muallifning badiiy shaxsiyatini ifodalovchi timsol darajasiga ko'tarilishini ta'kidlaydi. Olimning yozishicha: "“Binafsha, senmisan, binafsha senmi?” deganda Cho'lpon esga keladi. "Na'matak" Oybekdan darak beradi. "O'rik gullaganda" Hamid Olimjonni ta'bir etsa, "Majnun tolagiga o'tqazing meni" Mirtemirning shoh satridir" [5, 121-b].

Mazkur kuzatish "Na'matak" timsolining Oybek poetik olamidagi alohida maqomini ko'rsatadi. Ushbu obraz oddiy tabiat manzarasi yoki poetik detal emas. U adib estetik dunyoqarashining muhim ifodalaridan biri sifatida shakllangan. Muhimi, bu timsolning yuzaga kelishi bitta biografik voqea bilan izohlanmaydi. Aksincha, Oybek hayoti davomida to'plangan ma'naviy, estetik va ruhiy tajribalarning badiiy umumlashmasi sifatida namoyon bo'ladi.

Naim Karimov tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, Oybek dunyoqarashining shakllanishida bir vaqtning o'zida bir necha manbalar ishtirok etgan. Onasi Shahodat opa orqali singgan kitobxonlik muhiti, Navoiy va Fuzuliy she'riyatining ohanglari, Pushkin, Blok, Turgenev va Gorkiy ijodi, Sharq va G'arb falsafasi, xalq hayotini kuzatish tajribasi hamda tarixiy tafakkur adib ongida murakkab estetik tizim hosil qilgan. Keyinchalik ushbu tajribalar poetik tafakkurda qayta ishlanib, ramziy obrazlar, xarakterlar va badiiy konsepsiyalar shaklida namoyon bo'lgan.

Shu jihatdan "Na'matak" fenomeni Oybek biografiyasidagi alohida voqeaning emas, balki butun ma'naviy tajribaning poetik ekvivalenti sifatida talqin qilinishi mumkin. Bu yerda biografik materialning badiiy matnga aynan ko'chishi emas, balki estetik transformatsiyasi kuzatiladi. Natijada individual tajriba umumbashariy badiiy mazmun kasb etadi.

Mazkur holat Naim Karimov ilmiy talqinlarining muhim xususiyatini ham ochib beradi. Olim Oybek hayotidagi voqealarni asarlar bilan mexanik ravishda bog'lamaydi. Aksincha, u biografik faktlarning ijodiy ongda qayta ishlanish mexanizmlarini ochishga intiladi. Shu sababli uning tadqiqotlarida biografiya tarixiy ma'lumotlar yig'indisi emas, balki badiiy tafakkur genezisini anglash vositasiga aylanadi.

Demak, Oybek ijodini biografik metod asosida o'rganish adib asarlaridagi obrazlar va poetik timsollarni chuqurroq anglash imkonini beradi. "Na'matak" timsoli misolida ko'rish mumkinki, hayotiy voqelik va shaxsiy tajribalar badiiy matnda to'g'ridan to'g'ri aks etmaydi; ular murakkab estetik qayta ishlash jarayonidan o'tib, yangi badiiy sifat hosil qiladi. Bu esa Naim Karimov tadqiqotlarining o'zbek adabiyotshunosligida biografik metod imkoniyatlarini kengaytirganini ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Naim Karimovning Oybek hayoti va ijodiga bag'ishlangan tadqiqotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, olim adib biografiyasini oddiy tarjimai hol sifatida emas, balki ijodiy tafakkur shakllanishining murakkab jarayoni sifatida talqin qiladi. Shu jihatdan uning ilmiy izlanishlari o'zbek adabiyotshunosligida biografik metodning zamonaviy interpretatsion imkoniyatlarini namoyon etuvchi muhim tadqiqotlar sirasiga kiradi.



Tadqiqot natijalari Oybek badiiy tafakkurining shakllanishida oilaviy-estetik muhit muhim o'rin tutganini ko'rsatdi. Onasi Shahodat opa orqali singgan kitobxonlik muhiti, Navoiy, Fuzuliy va Mashrab she'riyatiga bo'lgan qiziqish adib dunyoqarashining dastlabki ma'naviy asoslarini shakllantirgan. Keyinchalik ushbu estetik tajriba Sharq mumtoz adabiyoti bilan tizimli tanishuv jarayonida yanada boyigan.

Naim Karimov va Zarifa Saidnosirova keltirgan biografik ma'lumotlar Oybekning qomusiy tafakkur egasi sifatida shakllanganini tasdiqlaydi. Adibning iqtisodiyot, falsafa, tarix va adabiyotga birdek qiziqishi, Sharq va G'arb madaniyati bilan muntazam muloqoti uning badiiy tafakkurini boyitgan muhim omillardan biri bo'lgan. 1935-yilda adabiyotni tanlagan bo'lsa-da, iqtisodiy va falsafiy tafakkur uning estetik dunyoqarashida saqlanib qolgan hamda badiiy umumlashtirish ko'lamining kengayishiga xizmat qilgan.

Tadqiqot davomida xalq hayotini kuzatish tajribasi, Toshkent muhiti va ijodiy makon fenomenining Oybek tafakkuri shakllanishidagi o'rni ham aniqlandi. Adib umrining turli davrlarida xalq orasida bo'lib, ularning turmush tarzi, dunyoqarashi va ruhiy olamini kuzatgan. Mazkur kuzatuvlar uning asarlarida tayyor fakt sifatida emas, balki badiiy tafakkurda qayta ishlangan estetik tajriba sifatida namoyon bo'lgan.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, Oybek ijodida biografik fakt va badiiy matn o'rtasidagi munosabat bevosita aks ettirish tamoyiliga emas, balki estetik transformatsiya qonuniyatlariga asoslanadi. Adib hayotidagi voqeliklar, mutolaa tajribasi, ma'naviy ta'sirlar va ruhiy kechinmalar ijodiy ongda qayta ishlanib, poetik obrazlar, xarakterlar va badiiy konsepsiyalarga aylangan. "Na'matak" timsoli ana shu jarayonning yorqin namunalaridan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Demak, Naim Karimov tadqiqotlari Oybek badiiy tafakkurining shakllanish manbalarini aniqlash bilan birga, o'zbek adabiyotshunosligida biografik metodning nazariy va amaliy imkoniyatlarini chuqurroq anglashga xizmat qiladigan muhim ilmiy manba sifatida ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Adizova O. Sharh Ogyusten de Sent-Byov – biografik metod asoschisi // O'zbekistonda xorijiy tillar. – 2019. – № 4. – B. 164–171.
2. Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi: Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. – Toshkent: A. Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 2004. – 264 b.
3. Karimov N. Oybek. – Toshkent: Yosh gvardiya, 1985. – 185 b.
4. Saidnosirova Z. Oybegim mening: Xotiralar / Nashrga tayyorlovchi N. Karimov. – Toshkent: Sharq, 2005. – 256 b.
5. Karim B. Ruhiyat alifbosi: Adabiy-ilmiiy maqolalar. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018. – 288 b.
6. Karimov N. Oybek va Zarifa. – Toshkent: O'zbekiston, 1990. – 127 b.
7. Ahmedova Sh. O'zbek adabiy tanqidchiligi janrlari: Monografiya. – Toshkent: Fan, 2008. – 176 b.
8. Nazarov B., Rasulov A., Ahmedova Sh., Qahramonov Q. O'zbek adabiy tanqidchiligi tarixi. – Toshkent: Tafakkur qanoti, 2012. – 312 b.
9. Hamdam U. O'zbek va jahon adabiyotiga chizgilar: Monografiya, ilmiy maqolalar, esse-taqrizlar va ma'ruzalar. – Toshkent: QAMAR MEDIA, 2026. – 320 b.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.